



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Шириневич	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	
Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	223
X. Xalilova, N. Niyazova	
Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response	227
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	
Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments	230
Turumova Marjona Bakhodirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati	233
Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari	236
Sultanov Xaytboy Eraliyevich	
Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari	241
Umarov Qobiljon	
Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari	245
Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi	
Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	250
Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi	
Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek	253
Khaydarova Guzalkhon	
Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor	256
Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna	
Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi	261
N. Nomozova, A. Muxamadiyev	
Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari.....	267
Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna	
Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli	272
Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi	
Algebra fanini o'rganishda talabaning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari	277
Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi	
Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей	280
Бозорова Хулкар Одинакуловна	



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoepik va orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	

CONTENTS

MUNDARIJA SOÐERJANIE

ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
Sultonova Nargiza Nigmatovna	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarining media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
Zaxiriddinova Shaxlo, Tufliyeva Roziya, Ismatullayev Javohir	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
З. Ф. Азизова	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
Сагатова Диёра Абдулазиз кизи	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кизи	
Академический стресс и формирование механизма "Самообвинения" у студентов	412
Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза	

O'QUV MATERIALLARINI DIDAKTIK PRINSIPLAR ASOSIDA BAYON QILISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Turdiyeva Navruza Sheraliyevna

Pedagogika nazariyasi va tarixi

Annotatsiya: O'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon qilishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Ta'lim jarayonida didaktik prinsiplarning – ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ko'rgazmalilik, ongli va faol ishtirok, mustahkamlash, individuallashtirish va boshqalarning – tutgan o'rni tahlil qilinadi. O'quv materiallarini samarali tashkil etish hamda talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda ushbu prinsiplarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv materiallarini strukturalashtirish, interfaol metodlardan foydalanish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etishning amaliy yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Didaktik prinsiplarning amaliyotga tatbiq etilishi orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatni takomillashtirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: didaktik prinsiplar, ta'lim jarayoni, o'quv materiali, ilmiylik, tizimlilik, ko'rgazmalilik, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The theoretical and practical foundations of presenting educational materials based on didactic principles are examined. The role of key principles such as scientific validity, systematicity and consistency, visualization, conscious and active participation, knowledge retention, and individualization in the educational process is analyzed. Particular attention is given to the effective organization of learning materials and the development of students' knowledge, skills, and competencies. The study also highlights modern pedagogical technologies, methods of structuring educational content, and the application of interactive teaching approaches. The implementation of didactic principles in practice is substantiated as an essential factor in improving the quality and effectiveness of education, as well as fostering independent thinking among learners. The findings of the study serve as a methodological basis for enhancing pedagogical activity.

Key words: didactic principles, educational process, learning materials, scientific validity, systematicity, visualization, interactive methods, pedagogical technologies, competencies, educational effectiveness.

Аннотация: Рассматриваются теоретические и практические основы изложения учебного материала на основе дидактических принципов. Анализируется роль таких принципов, как научность, системность и последовательность, наглядность, сознательность и активность обучающихся, прочность усвоения знаний и индивидуализация обучения в образовательном процессе. Особое внимание уделяется вопросам эффективной организации учебного материала, а также формированию знаний, умений и компетенций учащихся. Освещаются современные педагогические технологии, методы структурирования учебного материала и применение интерактивных методов обучения. Обосновывается значимость внедрения дидактических принципов в практику для повышения качества образования и развития самостоятельного мышления обучающихся. Результаты исследования могут служить методической основой для совершенствования педагогической деятельности.

Ключевые слова: дидактические принципы, образовательный процесс, учебный материал, научность, системность, наглядность, интерактивные методы, педагогические технологии, компетенции, эффективность обучения.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni har tomonlama rivojlantirish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'quv materiallarini ilmiy asoslangan holda, mantiqan izchil va didaktik talablarga mos tarzda bayon qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim mazmunining qanday tashkil etilishi va taqdim etilishi o'quvchilarning bilimni qabul qilishi, anglash darajasi hamda uni amaliyotda qo'llay olishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda ishlab chiqish va bayon etish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.



Didaktik prinsiplar ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlari va mazmunini belgilovchi asosiy mezonlar bo'lib, ular o'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarini to'g'ri tanlashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ko'rgazmalilik, ongli va faol ishtirok, mustahkamlash, individuallashtirish kabi prinsiplar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu prinsiplar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishiga ham imkon yaratadi.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar yanada murakkablashib bormoqda. Axborot hajmining keskin ortib borishi, innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy talablar asosida yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'quv materiallarini didaktik jihatdan to'g'ri strukturalash, ularni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, interfaol metodlar bilan boyitish kabi masalalarni dolzarb etadi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish sharoitida o'quv materiallarining mazmuni va bayon uslubi o'quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashi lozim.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga amal qilgan holda bayon etish o'quvchilarning bilimlarni puxta o'zlashtirishiga, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aksincha, mazkur prinsiplarga e'tibor berilmagan holatlarda o'quv materiallari murakkab, tushunarsiz va tizimsiz bo'lib qoladi, natijada o'quvchilarning bilim darajasi pasayadi. Shu sababli didaktik prinsiplar asosida o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirish masalalari davlat siyosati darajasida e'tirof etilmog'da. Bu esa o'quv materiallarini yaratish va bayon etishda didaktik yondashuvlarning rolini yanada oshiradi. Ayniqsa, o'qituvchilarning metodik mahoratini rivojlantirish, ularni zamonaviy didaktik yondashuvlar bilan qurollantirish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi¹.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon qilishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ochib berish hamda samarali qo'llash yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon qilish masalasi pedagogika fanining markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu yo'nalishda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Didaktika nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida klassik pedagoglarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, an'anaviy didaktikaning asoschisi hisoblangan Y. A. Komenskiy o'qitishning tabiiylik, izchillik va tushunarlilik prinsiplarini ilgari surib, o'quv materiallarini bosqichma-bosqich va tizimli bayon etish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayoni o'quvchining tabiatiga mos ravishda tashkil etilishi lozim, bu esa o'quv materiallarini didaktik jihatdan to'g'ri tuzishni talab etadi^[1].

Keyingi davr pedagoglari, jumladan, K. D. Ushinskiy ta'limning ongli va faol xarakterga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlab, o'quv materiallarini o'quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqqan^[7].

Ushinskiy ta'limda ko'rgazmalilik prinsipiga alohida urg'u berib, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishida sezgi organlari orqali qabul qilish muhim rol o'ynashini qayd etgan^[2].

Zamonaviy pedagogika fanida didaktik prinsiplar yanada takomillashtirilib, ularning mazmuni kengaytirilgan. M. N. Skatkin, I. Ya. Lerner, V. V. Davydov kabi olimlar tomonidan o'quv materiallarini strukturalash, muammoli o'qitish, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslab berilgan. Ularning ilmiy ishlanmalarida o'quv materiallarini tizimli tashkil etish, bilimlarni tayyor shaklda berishdan ko'ra, o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltirish zarurligi alohida ta'kidlanadi^[2].

O'zbek pedagogika ilmida ham mazkur masala yuzasidan salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N. Saidahmedov, B. Ziyomuhamedov, A. Avloniy va boshqa olimlar ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik prinsiplarning o'rni, o'quv materiallarini bayon qilish usullari hamda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini keng yoritib berganlar. Ularning asarlarida ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, o'quv materiallarini sodda va tushunarli shaklda yetkazish muhimligi ta'kidlanadi^[3, 4, 5].

1 B. Ziyomuhamedov – Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta'lim, raqamli pedagogika kabi zamonaviy yo'nalishlar asosida o'quv materiallarini qayta ishlab chiqish masalalari ham keng yoritilmoqda. Bu esa o'quv materiallarini faqat nazariy bilim berish vositasi sifatida emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlovchi muhim didaktik komponent sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon qilish bo'yicha nazariy qarashlar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish, ayniqsa, interfaol va raqamli muhitda qo'llash masalalari hali ham chuqur tadqiq etishni talab etadi. Demak, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta ilmiy-uslubiy tamoyillarga asoslanadi.

Avvalo, tizimli yondashuv asosida o'quv materiallari yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv orqali o'quv materiallarining mazmuni, tuzilishi, bayon qilish usullari hamda ularning o'quv jarayonidagi o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv o'quv materiallarini izchil va mantiqan to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Shuningdek, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tadqiqotning muhim metodologik asosi sifatida tanlandi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quv materiallari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga, ularni mustaqil fikrlashga undashga xizmat qilishi lozim. Shu sababli o'quv materiallarini ishlab chiqishda muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob, tahlil va sintez kabi metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- tahlil va sintez metodi orqali mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganilib, umumlashtirildi;
- qiyosiy tahlil metodi yordamida turli pedagogik yondashuvlar va didaktik prinsiplarning o'ziga xos jihatlari solishtirildi;
- kuzatish metodi orqali ta'lim jarayonida o'quv materiallarining bayon etilishi va uning samaradorligi o'rganildi;
- pedagogik tajriba metodi yordamida didaktik prinsiplar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallarining amaliy samaradorligi tekshirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olindi. Bu esa o'quv materiallarini yanada samarali va qiziqarli shaklda bayon etish imkonini beradi.

Metodologik jihatdan tadqiqot kompetensiyaviy yondashuvga ham asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu sababli o'quv materiallari mazmuni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan holda ishlab chiqilishi lozim ^[5].

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda samarali bayon etishning ilmiy asoslarini aniqlash, ularni amaliyotga joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon etishning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi hamda bir qator muhim natijalarga erishildi. Avvalo, aniqlanishicha, o'quv materiallarini ilmiylik, tizimlilik va izchillik prinsiplariga asoslangan holda tashkil etish o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tizimli ravishda tuzilgan o'quv materiallari o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirib, bilimlar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni anglash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilgan holda bayon etilgan o'quv materiallari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'rganilayotgan mavzuni tezroq hamda osonroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, grafik tasvirlar, diagrammalar, jadvallar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quv materialining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, ongli va faol ishtirok prinsipiga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanishi kuzatildi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, savol-javob va guruhli ishlash kabi yondashuvlar o'quvchilarni faollashtirib, ularni bilimlarni mustaqil ravishda egallashga undaydi. Natijada o'quvchilar faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi.



Tadqiqot davomida olingan yana bir muhim natija shundan iboratki, o'quv materiallarini individuallashtirish va differensial yondashuv asosida bayon etish o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu esa o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlashni ta'minlaydi. Kuchli o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar, o'zlashtirishi nisbatan past bo'lgan o'quvchilar uchun esa soddalashtirilgan materiallar taqdim etilishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, didaktik prinsiplar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallari qo'llanilgan guruhlarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari an'anaviy usulda o'qitilgan guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortgan, mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlangan hamda o'z fikrini erkin ifodalash darajasi yaxshilangan. Bu esa didaktik yondashuvning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon etish faqatgina nazariy talab emas, balki amaliy zarurat ham hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilardan faqat bilim olish emas, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va kreativ fikrlash kabi kompetensiyalar talab etiladi. Bu esa o'quv materiallarini bayon etishda yangicha yondashuvlarni qo'llashni taqozo etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, ayrim pedagoglar tomonidan didaktik prinsiplarning to'liq anglanmasligi yoki ularni amaliyotga tatbiq etishda yetarli metodik ko'nikmalarning mavjud emasligi ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ayrim hollarda o'quv materiallarining ortiqcha murakkabligi yoki tizimsizligi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida qiyinchiliklar tug'diradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va didaktik yondashuvlar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quv materiallarini ishlab chiqishda ilmiylik va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon etishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda yoritishga qaratildi hamda olib borilgan tahlillar asosida bir qator muhim ilmiy xulosalarga kelindi. Eng avvalo, ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita o'quv materiallarining qanday tuzilganligi va qanday bayon etilganligiga bog'liq ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Didaktik prinsiplar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallari o'quvchilarning bilimlarni chuqur, ongli va tizimli ravishda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ilmiylik, tizimlilik va izchillik prinsiplariga amal qilish o'quv materiallarining mantiqiy tuzilishini ta'minlab, bilimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni shakllantiradi. Bu esa o'quvchilarda nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ko'rgazmalilik prinsipining qo'llanilishi o'quv materiallarini idrok etishni osonlashtirib, ularni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Ongli va faol ishtirok prinsipiga asoslangan yondashuv esa o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va mustaqil ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talabi bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'quv materiallarini individuallashtirish va differensial yondashuv asosida bayon etishning ahamiyati ham asoslab berildi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning muhim natijalaridan yana biri shundaki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish didaktik prinsiplarning amaliy samaradorligini yanada oshiradi. Raqamli ta'lim muhitida o'quv materiallarini interfaol, vizual va dinamik shaklda taqdim etish o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning bilim olish jarayonini faollashtiradi. Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, didaktik prinsiplarni amaliyotga tatbiq etishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli darajada emasligi, o'quv materiallarining ayrim hollarda murakkab va tizimsiz tuzilishi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularni innovatsion metodlar bilan tanishtirish hamda o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'quv materiallarini didaktik prinsiplarga asoslangan holda bayon etish ta'lim jarayonini takomillashtirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois didaktik prinsiplarni chuqur o'rganish, ularni amaliyotga keng joriy etish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. N. Saidahmedov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. B. Ziyomuhamedov. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. M. Ochilov. Pedagogika. – Toshkent: Aloqachi, 2005.
5. R. Ishmuhamedov. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2014.
6. Sh. Qurbonov. Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2012.
7. U. Nishonaliyev. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2011.
8. J. Yo'ldoshev. Ta'lim metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
9. S. G'ulomov. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
10. X. To'xtaxo'jayev. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Ta'lim tizimini rivojlantirishga oid hujjatlar. – Toshkent, 2019.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Pedagogika fanlari bo'yicha namunaviy dasturlar. – Toshkent, 2021.
14. Z. Nishonova. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2012.
15. A. Jo'rayev. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.